MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

QO‘QON ADABIY MUHITIDA XATTOTLIK SAN’ATI AN’ANALARI

Mashhuraxon Darmonova,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri,
tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim
mashxura.darmonova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrda Qo‘qon adabiy muhitida xattotlik san’atining shakllanishi va taraqqiyoti yoritiladi. Qo‘qon xattotlik maktabining o‘ziga xos xususiyatlari, nasta’liq va boshqa xat turlarining qo‘llanilishi, qo‘lyozma asarlarni ko‘chirish, bezash va saqlash an’analari tahlil etiladi. Shuningdek, Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Muhammad Aminxoja Muqumiy, Sulaymonqul Rojiy Qo‘qondiy, Muhammad Yusuf Xo‘qondiy kabi xattotlarning kitobat san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi ochib beriladi. Xattotlikning Qo‘qon adabiy muhitida mumtoz adabiy merosni asrash, tarqatish va avlodlarga yetkazishdagi o‘rniga baho beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon adabiy muhiti, xattotlik san’ati, Qo‘qon xattotlik maktabi, kitobat madaniyati, qo‘lyozma, nasta’liq, shikastiy, husnixat, mumtoz adabiyot, adabiy meros.*

Аннотация: *В статье освещаются формирование и развитие искусства каллиграфии в Кокандской литературной среде во второй половине XVIII – XIX веках. Анализируются особенности Кокандской школы каллиграфии, применение насталика и других видов письма, традиции переписки, украшения и хранения рукописных сочинений. Также раскрывается вклад таких каллиграфов, как Мухаммад Латиф, Мирзо Шариф Дабир, Мухаммад Аминходжа Мукими, Сулаймонкул Роджи Коканди, Мухаммад Юсуф Хоканди в развитие искусства китобата (книжного дела). Дается оценка роли каллиграфии в сохранении, распространении и передаче классического литературного наследия будущим поколениям в Кокандской литературной среде.*

Ключевые слова: *Кокандская литературная среда, искусство каллиграфии, Кокандская школа каллиграфии, культура китобата, рукопись, насталик, шикасти, хуснихат, классическая литература, литературное наследие.*

Abstract: *The article highlights the formation and development of the art of calligraphy in the Kokand literary environment during the second half of the 18th and 19th centuries. It analyzes the specific features of the Kokand calligraphy school, the use of nasta’liq and other script styles, and the traditions of copying, decorating, and preserving manuscripts. Furthermore, the contribution of such calligraphers as Muhammad Latif, Mirza Sharif Dabir, Muhammad Aminkhoja Muqimi, Sulaymonqul Rojiy Kokandi, and Muhammad Yusuf Khokandi to the development of the art of kitobat (book art) is revealed. The role of calligraphy in preserving, disseminating, and transmitting the classical literary heritage to future generations within the Kokand literary environment is evaluated.*

Keywords: *Kokand literary environment, art of calligraphy, Kokand calligraphy school, kitobat culture, manuscript, nasta’liq, shikastiy, husnixat, classical literature, literary heritage.*

Qo‘qon xonligida XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bir qatorda ilm-fan, adabiyot va san’atning turli sohalarida ham muayyan taraqqiyot kuzatildi. Ayniqsa, Qo‘qon shahrida shakllangan adabiy muhit kitobat

madaniyatining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Ushbu davrda qo‘lyozma asarlarni ko‘chirish, saqlash va tarqatish jarayonining tarkibiy qismi sifatida xattotlik san’ati ham rivojlanib, Qo‘qonda o‘ziga xos xattotlik maktabining shakllanishiga olib keldi.

Qo‘qon xattotlik maktabining taraqqiyoti, avvalo, adabiy asarlarni qo‘lyozma shaklda ko‘paytirish va ularni kitobat an’analari asosida rasmiylashtirish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Farg‘ona vodiysining shaharlarida xattotlik kasbining keng tarqalishi natijasida ushbu sohada muayyan tajriba va mahorati bilan ajralib turgan mutaxassislar shakllangan. Manbalarda qayd etilishicha, qo‘qonlik mashhur xattot Mirzo Sharif Dabir rahbarligida Farg‘ona shaharlarida ko‘plab mohir xattotlar yetishib chiqqan. Ularning faoliyati Qo‘qon xattotlik maktabining mintaqada kitobat madaniyati taraqqiyotidagi nufuzini belgilagan.

Qo‘qon xattotlik an’analarini Markaziy Osiyoning boshqa yirik xattotlik markazlari bo‘lgan Hirot, Buxoro va Xiva maktablari bilan qiyosiy o‘rganish ular o‘rtasida umumiy va o‘ziga xos xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, Qo‘qon xattotlik amaliyotida nasta’liq xati asosiy xat turlaridan biri sifatida keng qo‘llanilgan.

Manbalarda qayd etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asrda Qo‘qonda Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirish va kitobat qilish an’anasi yuksak darajada rivojlangan. Xususan, 1838-yilda Muhammad Siddiq To‘nqotar tashabbusi bilan xattotlarga Alisher Navoiyning “Chor devon” asarini ko‘chirish vazifasi yuklatilib, olti oy davomida 300 nusxasi qo‘lyozma shaklda ko‘chirilgan va muqovalangan. Aytish mumkinki, XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida qo‘lyozma kitobat ishlari muayyan tashkiliy asosda amalga oshirilgan va xattotlik kasbi yuksak darajada rivojlangan.

Navoiy asarlarini ko‘chirishda ishtirok etgan xattotlar orasida Hoji Muhammad Hijriy, Oxund Mir Husayn, Nosirxon Mullo Muhammad Hijriy ibn Ashir Muhammad, Mullo Sarimsoq hamda xattot va shoir Mirzo Sharif Dabirning faoliyati alohida ahamiyatga ega. Ularning kitobat sohasidagi mehnati Qo‘qonda mumtoz adabiy merosni ko‘paytirish va saqlash jarayonining izchil yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi.

A. Murodovning “O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan” asarida Farg‘ona vodiysida faoliyat yuritgan 40 nafar xattotning nomi keltirilib, ularning ayrimlari haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Turdi Ali, Mirzo Mir Mahmud Xo‘qandiy Mirza Muhammad o‘g‘li, Ma’sumxon Maxdum Gulxaniy, Sulaymonqul usta Suyarqul o‘g‘li Rojiy Qo‘qondiy kabi xattotlar tilga olinadi [1, 96–122].

Xususan, Muhammad Latif XIX asr boshlarida Qo‘qon adabiy muhitida faoliyat yuritgan shoir, muzahhib va xattotlardan biri sifatida e’tirof etiladi. U 1813-yili Alisher Navoiyning “Chor devon” asarini nasta’liq xatida ko‘chirgan. Mazkur qo‘lyozmaning badiiy bezagida xat matni bilan bir qatorda jadvallar, zarhal lavhalar va boshqa kitobat unsurlaridan foydalanilgan [2, №9746].

Qo‘qon adabiy muhitida xattotlik san’ati an’analarining yuksalishida Mirzo Sharif Dabirning kitobat faoliyati muhim o‘rin tutadi. Uning qo‘lyozma asarlarni ko‘chirishdagi mahorati, xat turlaridan foydalanish usullari va mumtoz adabiy meros namunalarini kitobat qilish tajribasi Qo‘qon xattotlik maktabining o‘ziga xos jihatlarini yoritadi. U XIX asr o‘rtalarida yashab, ijod qilgan va xattotlik san’atida Mir Imod an’analarini davom ettirgan mohir xat ustasi sifatida tanilgan. Dabirning kitobat faoliyati Qo‘qon adabiy muhitida

qo‘lyozma asarlarni ko‘chirish va badiiy bezash an’analarining rivojida muhim o‘rin egallaydi. Manbalarda keltirilishicha, Mirzo Sharif Dabir 1836-yili Muhammad Alixonning buyrug‘i bilan Fuzuliy devonini nasta’liq xatida [3, №150], 1837-yili esa Fuzuliyning saylangan g‘azallarini alohida yuksak xat uslubida ko‘chirgan [4, №3465].

Qo‘qondagi xattotlik an’analarining yana bir muhim jihati qo‘lyozma matnlarni nafis xatda ko‘chirish va ularni badiiy jihatdan shakllantirish tajribasida namoyon bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishda Muhammad Aminxoja Muqumiy Mirzaxoja o‘g‘lining xattotlik faoliyati alohida e’tiborga loyiq.

Muhammad Aminxoja Muqumiy Mirzaxoja o‘g‘li Qo‘qon adabiy muhitida xattotlik san’ati bilan shug‘ullangan mohir xattotlardan biri bo‘lgan. U go‘zal nasta’liq xatida jaliy qalamdan foydalanib, qit’a va ruboiylarni ko‘chirgan. Ko‘chirgan matnlari ostiga “Katabahu al-faqir ul-haqir Muqimiy, 1315 hijriy”, “Mashoqahu Muqimiy”, «Muhammad Aminxo‘ja” kabi qaydlarni kiritgan.

Muqumiyning shaxsiy yozishmalari ham uning xattotlik mahoratini o‘rganishda muhim manbalardan sanaladi. Uning do‘stlari va zamondoshlariga yo‘llagan maktublari bilan bir qatorda, 1893-yili ko‘chirgan bir bayozi ham ma’lum. Hozirgi kunda Qo‘qon adabiyoti muzeyida Muqumiyning o‘z qo‘li bilan yozilgan 18 ta maktubi saqlanmoqda. Ushbu qo‘lyozma materiallar Muqumiyning shoir va adabiy muhit vakili bo‘lishi bilan birga, xattotlik an’analarini amalda davom ettirgan ijodkor sifatidagi faoliyatini tadqiq etish imkonini beradi [5, 300].



Muqimiy hujra-muzeyi

Qo‘qon adabiy muhitida husnixat an’analari keyingi davrlarda ham davom etgan. Muqimiy hujra-muzeyida saqlanayotgan Charxiyning husnixat namunalarida arab grafikasi asosidagi yozuv shakllari, harflar mutanosibligi, satrlar tartibi va kompozitsion

tuzilishga rioya etilgan. Mazkur namunalar Charxiyning husnixatni mustaqil badiiy-ijodiy mahorat darajasida egallaganini tasdiqlaydi. Ularda yozuvning mazmuniy vazifasi bilan bir qatorda, uning grafik va estetik xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Charxiyning husnixat namunalari Qo'qon adabiy muhitida shakllangan kitobat va husnixat an'analarining XX asrdagi davomini hamda ularning avlodlararo uzatilish jarayonini ifodalaydi.

Qo'qon kitobat an'analarida mumtoz asarlarni nafis xatda ko'chirish bilan bir qatorda, xattotlarning adabiy merosni chuqur bilishi va ijodiy salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu xususiyatlar Sulaymonqul usta Suyarqul o'g'li Rojiy Qo'qondiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Sulaymonqul usta Suyarqul o'g'li Rojiy Qo'qondiy fors va o'zbek mumtoz adabiyotini chuqur o'zlashtirgan ijodkorlardan biri bo'lib, Qo'qon shahrining Sarmazor dahasi, Ko'rxona mahallasida tug'ilgan. U o'zbek va fors tillarida qasida, marsiya hamda tarixiy she'rlar yaratish bilan bir qatorda, o'zbek tilida nazmiy shaklda "Zarb ul-masal" asarini ham yozgan.

Rojiyning adabiy faoliyati xattotlik san'ati bilan uzviy bog'liq bo'lgan. U 1914-yili Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin" asarini, Akbar ismli yosh yigit uchun Hofiz devonini, 1915-yili esa Nizomiy Qo'qondiyning fors tilidagi "Majmuat ul-maqosid va marfuat ul-marosib" asarini Qonibodom qozisi uchun go'zal nasta'liq xatida ko'chirgan. Mazkur qo'lyozmalar Rojiyning mumtoz adabiy merosni ko'chirish va kitobat an'analarini davom ettirish borasidagi mahoratini baholashda muhim manba hisoblanadi.

Rojiy xattotlik amaliyotida an'anaviy usullar bilan bir qatorda o'ziga xos badiiy texnikadan ham foydalangan. Xususan, timqora qog'ozga oq upa bilan yozilgan jaliy qalam qit'alari uning xat san'atidagi ijodiy yondashuvini namoyon etadi. Mazkur namunalar Qo'qon adabiy muhitida she'riyat va xattotlik san'atining o'zaro uyg'unlashuvi hamda kitobat an'analarining badiiy jihatdan takomillashganini tasdiqlaydi. Sulaymonqul usta Suyarqul o'g'li Rojiy Qo'qondiy 1921-yil 11-noyabrda 57 yoshida vafot etgan. Uning adabiy va xattotlik merosi Qo'qon kitobat madaniyati tarixida muayyan o'rin egallaydi.

Qo'qon xattotlik muhitida husnixat mahoratining ustoz-shogird va oilaviy an'analar asosida avlodlarga o'tishi kitobat san'atining barqaror rivojlanish omillaridan biri bo'lgan. Ana shunday muhitda kamol topgan xattotlardan biri Muhammad Yusuf Xo'qondiydir. Muhammad Yusuf Xo'qondiy 1835-yili Qo'qonda kotib oilasida tug'ilgan. Uning otasi Abulqosim xattot Qo'qonning mohir xushnavis kotiblaridan biri sifatida tanilgan. Muhammad Yusuf Xo'qondiy nasx va nasta'liq xatlarini puxta egallab, ko'plab qo'lyozma asarlarni ko'chirgan. Shuningdek, husnixat san'atidan ta'lim berib, bir qator shogirdlarni tayyorlagan. Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyandalari Furqat va Muqumiy ham undan husnixat saboqlarini olgan.

Qo'qon xattotlarining mumtoz adabiyot namunalarini ko'chirishdagi faoliyati yozma adabiy merosni asrash, nusxalash va avlodlarga yetkazish jarayonida muhim o'rin tutgan. Shu nuqtai nazardan, xattotlik san'ati Qo'qon adabiy muhitining muhim tarkibiy qismi bo'lib, kitobat madaniyatining taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq holda shakllangan.

Umuman olganda, Qo'qon xattotlik san'ati an'analari qo'lyozma adabiyotni yaratish va saqlash, milliy kitobat madaniyatini rivojlantirish, badiiy yozuv usullarini

takomillashtirish hamda adabiy merosni avlodlarga yetkazish jarayonlarida muhim o‘rin tutgan. Mazkur an’analarni o‘rganish Qo‘qon adabiy muhitining tarixiy-madaniy xususiyatlarini yoritish, xattotlik maktabining mintaqaviy taraqqiyotdagi mavqeini aniqlash va uni nomoddiy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida baholash uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodov Abduqodir. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. T.: Fan, 1971.
2. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 9746-ashyoviy raqam ostida saqlanmoqda.
3. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 150-ashyoviy raqam ostida saqlanmoqda.
4. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 3465-ashyoviy raqam ostida saqlanmoqda.
5. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati / Mas’ul muharrir N.Ibrohimov. / – T.: Sharq, 2005. – 384 b.